
QUTLOV



QUTLOV

Respublikamizda 15 aprel — madaniyat va san'at xodimlari kuni sifatida nishonladi. Mazkur sana 2021 yil 7 iyun sanasida Prezidentimiz tomonidan imzolangan «O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi qonun asosida qayd etiladi.

Mazkur sananing nishonlanishi, 1935 yil 15 aprelda Vashingtonda 21 davlat rahbarlari tomonidan dunyo tarixidagi birinchi bor Xalqaro badiiy va ilmiy muassasalar va tarixiy yodgorliklarni himoya qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomaning imzolanishi bilan bog'liqligini ko'ramiz. Ushbu shartnoma uning muallifi sharafiga «Rerix pakti» deb nomlangan. O'sha yili Nyu-Yorkda «Rerix pakti»ning rasmiy ramzi tinchlik bayrog'iga bag'ishlangan bayram bo'lib o'tgan.

So'x tumani hokimligi barcha tumanimizda faoliyat olib borayotgan madaniyat xodimlarini kasb bayramlari bilan qutlab, soha vakillariga mashaqqatli va mas'uliyatli ishlarida ulkan zafar va muvaffaqiyatlar tilaydi. Kasb bayramingiz muborak bo'lsin, madaniyat va san'at ahli!

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-15 13:52:55